



INNOVATION YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING AUTOPEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Raximov Hasanboy Umarjon o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

xasanboyrakhimov4474@gmail.com,

+99897 259 44 75

Annotatsiya: Bugungi kunda pedagogik ta'linda innovatsion yondashuvalar muhim o'rinn tutmoqda. Tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligi, ya'ni o'z-o'zini o'rgatish va rivojlanirish qobiliyati, o'quv jarayonida samarali natijalar olish uchun zarur bo'lgan asosiy komponentlardan biridir. Ushbu maqolada tasviriy san'at o'qituvchilarining innovatsion yondashuvalar asosida autopedagogik kompetentligini rivojlanirishning pedagogik muammolari va yechimlari tahlil qilinadi..

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, autopedagogika, kompetentlik, professional, kasbiy-ijodiy, tasviriy san'at, badiiy asar, badiiy-estetik, motivatsion, shaxsiy, kasbiy, psixologik, axloqiy.


РАЗВИТИЕ АУТОПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В настоящее время инновационные подходы играют важную роль в педагогическом образовании. Аутопедагогическая компетентность учителей изобразительного искусства, то есть способность к самообучению и саморазвитию, является одним из ключевых компонентов, необходимых для достижения эффективных результатов в учебном процессе. В данной статье анализируются педагогические проблемы и пути развития аутопедагогической компетентности учителей изобразительного искусства на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: инновационный подход, самопедагогика, компетентность, профессиональная, профессионально-творческая, изобразительное искусство, художественный труд, художественно-эстетическая, мотивационная, личностная, профессиональная, психологическая, этическая.

DEVELOPMENT OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: At present, innovative approaches play an important role in pedagogical education. Autopedagogical competence of fine art teachers, that is, the ability to self-study and self-development, is one of the key components necessary to achieve effective results in the



educational process. This article analyzes pedagogical problems and ways of developing autopедагогical competence of fine art teachers based on innovative approaches.

Keywords: approach, self-pedagogy, competence, professional, professional-creative, fine arts, artistic work, artistic-aesthetic, motivational, personal, professional, psychological, ethical.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif tizimida innovatsion yondashuvlar va pedagogik metodlarni qo'llash zaruriyati tobora ortib bormoqda. Bu o'zgarishlar faqatgina umumiy ta'lif sohasida emas, balki maxsus fanlar, jumladan tasviriy san'at ta'lifimda ham muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish, ayniqsa, innovatsion yondashuvlar asosida, ta'lif sifatini oshirish va o'quvchilarga chuqur, keng qamrovli bilimlarni taqdim etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Autopedagogika – o'z-o'zini ta'limalash, o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish, yaxshilash va samarali metodlarni ishlab chiqish jarayoni bo'lib, bu jarayon o'qituvchilarning pedagogik va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Innovatsion yondashuvlar asosida tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi ta'lif muassasalarida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi ta'lifi sohalarida ishlash hamda uni o'qitishda o'quvchilarning autopedagogik kompetentlikni shakllantirish borasida bajarilishi muhim hisoblangani "Tasviriy san'at tarixi" fani orqali ijodiy asarni baholash hamda unga taalluqli mezonlar aniq bo'lsa, demak, autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish hamda uni baholash tasviriy san'at fani o'qituvchisi uchun ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Hozirda ta'limga doir qator me'yoriy hujatlarda ta'lif sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri shaxsni ma'naviy tarbiyalash maqsadida axloqiy tamoyillar va standartlarni shakllantirish hamda rivojlantirish vositasi sifatida san'atning axloqiy salohiyatidan yanada kengroq foydalanish lozimligi ko'p bor tilga olinadi. Mazkur talab o'sib kelayotgan avlodning estetik madaniyatini shakllantiradigan



badiiy pedagogik ta'lismi va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sohasidagi strategik reja asosida yotadi hamda innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san't o'qituvchilarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha talabalarni tayyorlash sohasidagi asosiy kasbiy ta'lismi dasturining maqsadi bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yondashuvlar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida kreativlik, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'z-o'zini anglash va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyatlarini oshiradi. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida bo'ladigan tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik muammolari ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika oliy ta'lismi muassasalari "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lismi yo'nalishi talabalari tabiatdagi olam go'zalligini baholashning aniq mezonlari hisoblangan badiiy ijod va badiiy ijod jarayoniga yo'nalgan bo'lishlari kerak. "Tasviriy san'at tarixi" fani orqali talabalarda autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda nafaqat pedagogik mahoratni ilmiy-nazariy asoslarini o'zlashtirishi, balki ular badiiy va estetik madaniyatning targ'ibotchisi bo'lishlari lozim. Shuning uchun tasviriy san'at tarixi fani orqali talabalarlarda autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda badiiy-estetik tayyorgarligi tushunchasi mazmuni va tuzilmasi hamda oliy ta'lismi jarayoni sharoitida uni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashtirishga alohida zaruriyat mavjudir.

Pedagogik faoliyatga kasbiy-ijodiy tayyorgarlik muammolari ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan joy olgan. Jumladan, B.X.Raximov - bo'lajak o'qituvchida kasbiy-madaniy munosabatning shakllanishi, N.A.Muslimov - o'qituvchini kasbiy shakllantirishning pedagogik asoslari, M.B.Urazova - kasbiy ta'lismi jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni loyihibaviy faoliyatga tayyorlash, F.R.Yuzlikaev - bo'lajak o'qituvchilarning didaktik tayyorgarligini jadallashtirish, S.R.Zoxidova - o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirish va boshqalar yuqorida yo'nalishlar bo'yicha izlanishlarni amalga oshirishgan.



“Pedagogik faoliyatga tayyorlik boshqa har qanday faoliyatdan farq qilmaydi, bu shaxsning o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasini anglashi va barcha harakatlarning maqsadlarga erishishga yo‘nalganligini anglatadi” deb ta’kidlaydi A.T.Puni. Bizning nazarimizda bu fikr albatta, bir oz munozarali, chunki, tayyorlik oddiy harakatlarga qaraganda ancha murakkab kategoriyadir va ko‘p bosqichli, qirrali tizim bo‘lib, uning mohiyati faoliyatning o‘ziga xos ijodiy qobilyatlari bilan belgilanadi. M.T.Mirsolieva esa kasbiy-ijodiy tayyorgarlikka professionalning o‘ziga xos va jamoaviy ilmiy ishlarni tashkil etish qobiliyati, innovatsion kelajakni ko‘rish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash kabi fazilatlarni kiritish mumkinligini tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tgan.

Shunday qilib, mazkur masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ma’lum xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jumladan, (1) kasbiy-ijodiy tayyorgarlik tadqiqotchilar tomonidan faoliyatning natijasi; (2) kasbiy-ijodiy vaziyatga doir muammolarni hal qilishga munosabatni o‘rnatadigan sifat; (3) maqsadli faoliyat uchun shart-sharoitlar; kabi murakkab tarkibiy asosga ega faoliyat turidan kelib chiqadigan shaxsning faol holati sifatida talqin etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik faoliyatga tayyorlashning ta’rifi tadqiqot yondashuviga qarab izohlanadi. Shu sababli pedagogik faoliyatga tayyorlashning bir nechta turlari va shakllari ajratiladi: shaxsiy, kasbiy, psixologik, axloqiy, motivatsion va boshqalar.

Shundey ekan, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorligini uchta tarkibiy asosini ajratib ko‘rsatish mumkin: birinchidan, ijodiy faoliyat davomida mustahkam poydevorning yaratilganligi; ikkinchidan, talabalar, rassomlar bilan va pedagogik jarayondagi o‘zaro munosabatlarda aks etadigan shaxs sifati, qobiliyati, ustuvor yo‘nalishlarining rivojlanganligi; uchinchidan, o‘z-o‘zini namoyon qilish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirishning qat’iy asosga ega ekanligi.

Ta’kidlash joizki, yuqorida fikrlar ba’zi mutaxassisliklar uchun, masalan, tasviriy san’at o‘qituvchilari uchun mukammallik kasb etmaydi, chunki tasviriy san’at tarixi fani orqali bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida autopedagogik



kompetentlikni rivojlantirishga qo'yiladigan talablar uning faoliyat yo'nalishiga qarab belgilanishi kerak.

Tasviriyl san'at tarixi fani orqali bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda, alohida tarkibiy qismiga tasviry san'at asarlarning o'zi, san'atshunoslik elementlari, tasviriyl san'at nazariyasi, badiiy asarlarni tahlil qilishga kiradi. Tasviry san'at tarixi fani orqali bo'lajak tasviriyl san'at o'qituvchilarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni tasviriyl san'at asarlarini idrok etish va o'rganishni shakllantirishga, atrofdagi borliqga va kreativ munosabatni rivojlantirishga qaratilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari tasviriyl san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ochib, pedagogik faoliyatda yangicha yondashuvlar va metodlar qo'llanilishi, o'qituvchilarning o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini oshirib, kasbiy faoliyatda samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, masofaviy o'qitish va interaktiv metodlar tasviriyl san'at o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyalarini yanada mustahkamlashga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning autopedagogik kompetentligini rivojlantirishda shaxsiy rivojlanish va doimiy o'qish jarayonining ahamiyati katta. O'qituvchilar o'z pedagogik usullarini doimiy ravishda tahlil qilib, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazish orqali o'z faoliyatlarini takomillashtirishga erishadilar. Bu jarayon o'quvchilarga yanada sifatli va ta'sirchan ta'lif berishga yordam beradi. Shu bilan birga, autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ba'zi muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Bular orasida o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, o'qituvchilarni yangiliklarga moslashtirish uchun qo'shimcha o'quv dasturlarining zarurligi va autopedagogik faoliyatni nazorat qilishni rivojlantirish masalalari mavjud.

Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar asosida tasviriyl san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirish, ularning pedagogik faoliyatini samarali qilish, o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlash va ta'lif jarayonini takomillashtirishga katta hissa qo'shadi. Shu bilan birga, bu jarayonni



amalga oshirishda pedagogik amaliyotdagi turli muammolarni hal etish zarurati ham muhimdir. Bu esa, o'qituvchilarning kompetentliklarini yanada rivojlantirish va ta'lif sifatini oshirish uchun zaruriy shartlarni yaratadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, tasviriy san'at tarixi fani orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida autopedagogik kompetentlikni rivojlantirishda kasbiy-ijodiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishi hisoblanib, uni shakllantirish o'quvchilarning estetik va madaniy faoliyati jarayonida bevosita jalb etiladigan milliy xususiyatlar, etnik an'analarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, yangi pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirishga va o'z faoliyatlarini doimiy ravishda yaxshilashga imkon beradi. Autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchilarga qo'shimcha o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalarini joriy qilish zarurligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, innovatsion pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarini joriy qilishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, lekin bu muammolarni hal qilish orqali ta'lif jarayonini takomillashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish mumkin. Umuman olganda, tasviriy san'at o'qituvchilarining autopedagogik kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ta'lif sifatini oshirishda, pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda va o'quvchilarga sifatli ta'lif berishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Boltaboyev A. Color Relationships in Paintings //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2023.
2. Taxirovich S. N. et al. BADIY TASVIR VOSITALARIDA METONIMIYANING LINGVISTIK TAVSIFI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 34. – №. 3. – C. 42-45.
3. Rakhimov, H. U. (2023). ANALYZING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON ART STUDIES. Экономика и социум, (1-1 (104)), 50-53.
4. Pulatov, D. S., & Kh, R. U. (2019). On fine arts and its varieties. Вестник магистратуры, (4-4 (91)), 89-90.